

TIL O'RGANISHDA TEXNOLOGIYANING TALABALAR MOTIVATSIYA VA BILIMINI SAQLAB QOLISHDAGI AHAMIYATI

U. Karimova ¹, S. Norqulova ²

Annotatsiya:

Ushbu maqolada talaba va yoshlarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi, ishtiyoqi, shuningdek, xorijiy tillarni oson va samarali o'rganishdagi innovatsion texnologiyalarning roli va uning qay darajada muhimligi ilgari surilgan. Shu bilan birga, o'quv jarayonlarida turli xil metodlardan foydalanish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Innovatsion, texnologiya, metodika, sun'iy intellekt.

Guvohi bo'lganimizdek, bugungi kunda chet tilini o'rganishga bo'lgan talab kundan-kunga jadal rivojlanib bormoqda. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, yurtimiz har taraflama rivojlana boshladi. Jumladan, internet shu darajada rivojlandi-ki, uning yordamida yoshlar o'ziga kerak bo'lgan barcha qulayliklarga ega bo'lish imkoniyatiga muvaffaq bo'ldilar. Hozirda barcha viloyatlardagi maktab, kollej, litsey va oliy o'quv yurtlari yoyinki, maktabgacha ta'lim muassasalari ham zamonaviy texnologiya vositalari bilan ta'minlanganini ko'rishimiz mumkin. Yoshlarimizda yuqori rusumdagi kompyuterlar orqali internetdan foydalanib, istalgan vaqtgacha dars qilish imkoniyati mavjud. Bu kabi imkoniyatlar, mamlakatimizda texnologiyaning sezilarli darajada oshayotgani yoshlarimizning motivatsiyasini yanada oshirsa hech gap emas. Chunki internet, kompyuter, telefon va shu kabi texnologiyalar har taraflama qulaylik yaratdi desak mubolag'a bo'lmaydi, masalan, hozirda yoshlarda masofadan turib bilim olish imkoniyati mavjud, ya'ni, online darslar tashkil etilgan. Bundan kelib chiqadiki biz yoshlar o'zimiz xohlagan vaqt va kurslarda ishtiyoq bilan bilim olish ko'nikmalariga egamiz. Web 2 vositalarining paydo bo'lishi va ularning ko'payishi o'qituvchilarning pedagogik amaliyoti va o'quvchilarning o'rganish strategiyalarini o'zgartirib yubordi. Lamb (2017) ta'kidlashicha, rivojlangan mamlakatlarda, raqamli texnologiyalarining rivojlanishi chet til o'qitish metodologiyasida eng muhim innovatsiya manbai hisoblanadi. Uning fikriga ko'ra, texnologiyalarning o'qitish jarayonidagi motivatsion xususiyatlari ularning ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun texnologiyalardan foydalanishning ikki asosiy maqsadi mavjud:

1. O'rganilgan bilimlarni real hayotda qo'llash imkoniyatini oshirish.
2. O'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilish va ularning motivatsiyasini oshirish.

Motivatsiya haqida Brofi (2004) shunday ta'rif beradi: "...motivatsiya – bu biror xatti-harakatni boshlash, uning yo'nalishi, shiddati, barqarorligi va sifatiga ta'sir qiluvchi nazariy tushuncha bo'lib, ayniqsa maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlar uchun muhimdir...". Haqiqatdan ham, motivatsiya o'quvchining kursda qanchalik faol qolishi, uning darslardagi ishtirok darajasi, bajargan ishlari sifati va erishgan yutuqlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi (Maggie Hartnett, 2016).

Karsanti (1999) motivatsiyani tashqi va ichki kuchlar ta'sirida shakllanadigan, shaxsning fikrlash, his-tuyg'u va xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi jarayon deb ta'riflaydi.

Lamb (2017) texnologiyalarni chet til o'qitishda motivatsiyani oshirishdagi asosiy afzalliklarini quyidagicha ta'riflaydi:

- O'quvchilar uchun ko'proq avtonomiya va individual yondashuv;
- Yangi muloqot imkoniyatlari;
- Shaxsiyat rivojlanishi;
- O'quvchilarning mavjud IT ko'nikmalaridan foydalanish;
- Mazmunga yo'naltirilgan ta'lim (content-based instruction);
- Madaniylarao kontent;
- Motivatsion o'quv vazifalarini yaratish;
- Chet tilning (L2) ahamiyatini oshirish;
- Baholashning alternativ shakllari.

Ko'plab tadqiqotlar ko'rsatishicha, o'qituvchilar va tadqiqotchilar turli dasturlar va ilovalardan motivatsiya bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun foydalanib kelishgan. Adabiyot tahlili asosida texnologiyalar quyidagi to'rt toifaga ajratilgan:

1. Web vositalari, servislar va ilovalar;

¹ Karimova Umida Ochilovna, assistant-o'qituvchisi Samarqand Davlat chet tillar instituti

² Norqulova Sevinch Abdurasul qizi, 1-bosqich talaba, Ingliz tili fakulteti, Samarqand Davlat chet tillar instituti

2. O'yinlar va virtual muhitlar (MUVEs);
3. Muloqot vositalari;
4. Mobil texnologiyalar.

2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror bu borada muhim omil bo'lib xizmat qildi.

"Sun'iy aql va tillarni o'rganish" maqolasida B.Skinner tilni osonlik bilan o'rganishda kompyuterning roli muhimligini ta'kidladi. Kompyuter bilan ishlash o'z ustida ishlash uchun muhimdir. Zamonaviy texnologiyalar yordamida tilni o'rganishda, talabalar ma'lumotlarga munosabat bildirishni o'rganadilar va ma'lumotlarni sust ya'ni noaniq joylarini tahlil qila oladilar. Texnologiya faqatgina zamonaviy ta'lim uchungina xos emas, balki u kelajakning zamonaviy va yangi ta'limini amalga oshiruvchi o'rtadagi manbadir.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, biz XXI asr innovatsion texnologiyalar davrida yashar ekanmiz, ushbu qulayliklardan oqilona foydalanishimiz lozim chunki, chet tillarini barcha uchun tushunarli tarzda o'rgatishimiz dardkor. Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev biz yoshlarni kelajakda vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shishimiz uchun ulkan islohotlar qilmoqdalar. Mutaxassislar tayyorlash, ularning malakasini oshirish ham dolzarb hisoblanadi.

Davlatimizning jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy aloqalari kuchayib borayotgan bir paytda yoshlarimizning xorijiy mamlakatlar hayoti, madaniyati, urf-odatlarini, tiliga bo'lgan qiziqishlari ortib bormoqda. Bu aloqalarning rivojida chet tillarining o'rnini beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Umida K. *The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism* // *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*. – 2022. – T. 8. – C. 4-9.

[2]. Umida K. *The ways of using constructivism to teaching phraseological units and vocabulary for efl* // *Academicia Globe: Inderscience Research*. – 2022. – T. – №. 4. – C. 1-6. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/1325>

[3]. Umida, Karimova. "The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism." *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching* 8 (2022): 4-9. Retrieved from ISSN: 2795-739X.

[4]. Ochilovna K. U., Sameyevna M. Z. *IMPROVING SPEAKING SKILL WITH THE HELP OF MODERN TECHNOLOGIES* // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 367-369.

[5]. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1417303.pdf>

[6]. <https://cyberleninka.ru/article/n/til-o-rganishda-zamonaviy-texnologiyalarning-o-rni>

[7]. <https://www.in-academy.uz/index.php/zdpp/article/download/16337/11329>